

ALEKSANG FAYNBERG -“VATAN: TABIAT, MEHNAT VA SADOQAT MADHIYASI”

O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi 2-kurs talabasi

Shukurova Sevinch Bahodir qizi

Scientific adviser:

Saydamatov Ikromjom Nazirovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli o’zbek va rus shoiri Aleksandr Faynbergning Vatan she’ri lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. She’r inson qalbida Vatanga sadoqat va uning har bir qarich tuprog‘iga ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otadi. Faynberg badiiy tasvir vositalari – tashbih, ramz va parallelizm yordamida yurakdag‘i dard va baxtni Vatan timsolida mujassamlashtirgan.

Kalit so’zlar: Vatan, milliy g‘urur, tabiat tasviri, ona yurt, badiiy tasvir, tashbeh va ramz, yurak kechinmalari.

Aleksandr Faynbergning “Vatan” she’ri ijodiy adabiyotning Vatanga muhabbat, sadoqat va milliy iftixorni madh etishga bag‘ishlangan yorqin namunalaridan biridir. She’rda shoirning yurti – Vatan tabiatini, uning go‘zalligi, xalqining turmush tarzi va milliy qadriyatlarini tasvirlash orqali ichki kechinmalari aks ettirilgan. She’rning asosiy mavzusi – Vatan haqida cheksiz faxr va muhabbat tuyg‘ulari. Shoir Vatanni nafaqat geografik hudud, balki tarixiy, madaniy va ruhiy qadriyatlar manbai sifatida tasvirlaydi. Asarda Vatanga bo‘lgan mehr insonning tug‘ma tuyg‘usi sifatida talqin etiladi. Shoir o‘z she’rida Vatan tabiatini yorqin va badiiy tasvirlar orqali ohib beradi:

“Quyoshli, to‘rtburchak dalalardan to

Tizma tog‘largacha cho‘zilgan Vatan”

Bu tasvir Vatanning keng hududlari va betakror tabiatini yuksak badiiylik bilan aks ettiradi.

“Gumbazdek teraklar turarlar qator”

Gumbazdek teraklar tasviri nafaqat milliy manzarani, balki Vatandagi tartib va uyg'unlikni ham ifodalab turibdi.

Shoir o'z yurti bo'ylab kezib, xalqning mehnatini, oddiy hayot tarzini his etadi:

"Dalalar ni kezdim qadam-ma-qadam,

Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob."

Bu satrlarda o'lhash va qadam-baqadam yurishni tasvirlash orqali insonning mehnatiga yuksak ehtirom izhor etiladi. Vatanni bilish, anglash va ulug'lash insoniy burch sifatida talqin etilgan. Shoir Vatan xalqining oddiy, samimiylayotini quyidagicha tasvirlaydi:

"Loysuwoq uylarda simirdim chalob,

Eshiksiz hovilar ochiqdir mudom."

Bu misralarda xalqning mehmondo'stligi, ochiqko'ngilligi va milliy qadriyatlari aks ettiriladi.

Vatanga sadoqat va faxr

She'rning muhim qismlaridan biri – Vatanni boshqa yurtlar bilan solishtirish va o'z yurtidan faxrlanish:

"Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham."

Bu misralar shoirning Vatani oldidagi sadoqati va uning betakrorligiga bo'lgan ishonchini ochib beradi. Bu – yurtidan mammun bo'lgan ijodkorning jasoratli da'vosidir.

Qalb kechinmalarini va ramzlar

She'r yakunida shoir yurakdagi og'riq va shodlikni birgalikda his qiladi:

"Mag'rur parvoz etar burgut falakda.

O't tishladim. Labda sho'r ko'z yosh. Bu dam

ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda."

Burgut obrazi Vatanning qudrati va yuksakligini ifodalasa, "o't tishladim" kabi iboralar Vatan yo'lida kechirilgan mashaqqatlarni anglatadi. Bu misralarda Vatan sevgisi ham dard, ham baxt manbai ekanligi ta'kidlanadi.

She'riy san'atlar

She'rda quyidagi badiiy vositalar ishlatilgan:

1. Tashbeh: "Gumbazdek teraklar", "burgut falakda".

2. Metafora: Yurakdagi dard va baxtni Vatan bilan bog'lash.

3. Ramzlar: "Burgut" – Vatan timsoli, "o't tishlash" – mehnat va mashaqqat ramzi.

4. Parallelizm: Dalalar va tabiat tasvirlarining ketma-ket berilishi.

Xulosa. Aleksandr Faynbergning "Vatan" she'ri ona yurtga bo'lgan muhabbatni, milliy g'urur va insoniy qadriyatlarni teran aks ettiradi. Shoir Vatan manzaralari, xalqining hayoti va o'zining ichki kechinmalarini bir butunlikda tasvirlab, Vatanni ulug'laydi. Bu she'r o'quvchini Vatan qadri va unga sadoqat haqida o'ylashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmonqulova F.A. Aleksandr Faynberg she'rlari tahlili. Integration, evolution, modernization, ways of development of science and education, 2023.
2. N. Karimov, A. Sharipov. "Adabiyotshunoslik asoslari". – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
3. Aleksandr. F "Qoralamaga qasida". Tashkent- 2021
4. <https://arboblar.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich>